

**BOSHLANG'ICH SINFLARDA «TARBIYA» FANINI O'QITISHDA  
INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH METODIKASI**

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti Pedagogika  
kafedrasida assistent o'qituvchisi*

*Milnorov Xusniddin Xushmatovich*

*[husniddin2018@mail.ru](mailto:husniddin2018@mail.ru)*

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti pedagogika  
yo'nalishi 1-22-guruh talabasi*

*Xolpo'latova Mehriniso Xolpo'lat qizi*

**ANNOTATSIYA**

Bugungi innovatsion va texnologiyalar rivojlangan davrda boshlang'ich sinf o'quvchilarining ta'lim va tarbiyasini yaxshilash yo'llarini izlash yo'nalishida boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ma'suliyat va faolligi oshdi. Yangi ta'lim standartlari ochiqlik, xilma-xillik, moslashuvchanlik bilan ajralib turadigan va hozirgi o'qituvchi o'z ta'lim yo'lini va maktabga moslashish yo'lini tanlaydigan sharoitlarni taklif qilmoqda. Shuning uchun bu maqolaning asl maqsadi boshlang'ich sinflarda «Tarbiya» fanini o'qitishda innovatsion metodlarni tatbiq etish iboratdir.

**Kalit so'zlar:** Tarbiya fani, o'qitish texnologiyasi, metod, metodika, boshlang'ich sinf, innovatsion metodlar, o'quvchi, o'qituvchi

**ABSTRACT**

In today's innovative and technologically advanced era, the responsibility and activity of primary school teachers has increased in the direction of searching for ways to improve the education and upbringing of primary school students. The new educational standards offer conditions characterized by openness, diversity, flexibility, and where the current teacher chooses his own educational path and the way to adapt to the school. Therefore, the main goal of this article is to implement innovative methods in teaching the science of «Education» in primary classes.

**Key words:** Pedagogy, teaching technology, method, methodology, primary class, innovative methods, student, teacher

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi umumiy o'rta ta'lim muassasalarida «Tarbiya» fanini joriy etish bo'yicha qaror qabul qilindi. Mazkur qarorning asosiy maqsadi umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilarining Yoshi va psixofiziologik xususiyatlarini inobatga olgan holda ularning ongiga umuminsoniy qadriyatlar va yuksak ma'naviyatni yanada chuqur singdirish, ularni vatanparvarlik va

insonparvarlik ruhida tarbiyalash, umumiy o'rta ta'lim muassasalaridagi ma'naviy-tarbiyaviy ishlarni yangicha asosda tashkil etishdan iboratdir.

Mazkur qarorni amalga tatbiq qilish maqsadida boshlang'ich sinf o'quvchilariga mazkur fanni o'qitish boshlandi. Bizga ma'lum, boshlang'ich maktab bu bolaning hayotidagi qimmatli, principal jihatdan yangi bosqich: tizimli o'qitish ta'lim muassasasida boshlanadi, uning tashqi dunyo bilan o'zaro ta'siri doirasi kengayadi. Ijtimoiy mavqeyi o'zgaradi va o'zini namoyon qilish zarurati ortadi.

Ma'lumki, bolalar o'z qiziqishlariga ergashish, tanlov qilish va bir-biri bilan faol muloqot qilish imkoniyatiga ega bo'lsalar, samarali o'rganishadi. Biz bolalarga o'rganishga bo'lgan ishtiyoq va muhabbatni, tanqidiy fikrlashni, rivojlantirishni, o'quvchilarni turli ta'lim shakllaridan foydalanishga undaydigan faol ta'lim orqali ijobiy va ijtimoiy ma'suliyatli shaxslarni tarbiyalashni hohlaymiz.

Boshlang'ich sinflarda innovatsion metodlardan foydalanish ta'limning zamonaviy shakli hisoblanadi. Shu bois, innovatsion metodlardan «Tarbiya» fanini o'qitishda foydalanish katta ahamiyat kasb etadi. Quyida keltirilgan innovatsion metodlar boshlang'ich sinf o'quvchilarida «Tarbiya» fanini o'qitishda keng qo'llaniladi va o'z samarasini beradi:

«Akvarium» metodi. Bu metodda 5-6 nafar ishtirokchilar rahbar bilan birga doira shakli bo'ylab o'tiradilar. Ular – baliqlar. Ularning atrofiga guruhning qolgan ishtirokchilari o'tiradilar. Ular – baliq ovchilari. Ichki doira a'zolari o'qituvchi taklif qilgan saavolni faol muhokama qiladilar. «Baliq ovchilari» esa kuzatib turadilar va savolni muhokama qilayotgan biron o'quvchining fikri ularni qiziqtirib qolganda jarayonga kirishadilar: qo'shimcha qiladilar, savol beradilar, aniqlashtiradilar. Shunda «baliq ovchisi» fikri uni qiziqtirib qolgan «baliq»ning yoniga turib olishi kerak. Bir muammoning muhokamasi tugagandan so'ng ishtirokchilar joylari bilan almashadilar. Barcha ishtirokchilar doirada o'tirishlari maqsadga muvofiqdir

«Akvarium» metodidan ta'lim jarayonida foydalanish o'qituvchidan faollik, pedagogic mahorat, shuningdek, guruhlarni maqsadga muvofiq shakllantirish olish layoqatiga ega bo'lishni talab etadi. Guruhlarning to'g'ri shakllantirilmasligi topshiriq yoki vazifalarning to'g'ri hal etilmasligiga sabab bo'lishi mumkin.

«Yozma bahslar» metodi. Bu metod o'quvchilarga o'quv xonasidagi tengdoshlari bilan birgalikda shu onda jamoatchilik fikrini to'lqinlantirayotgan mavzularda muloqotlarni rejalashtirish imkonini beradi. Uslub o'quvchilarning berilgan mavzu sohasidagi bilimlarini chuqurlashtirish sharoitini yaratish, munozara madaniyatini o'rgatish va o'z fikrini asoslash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu metoddan foydalanishda o'qituvchi o'quvchilarni baholash uchun asos xizmatini o'tovchi ajoyib materialga ega bo'ladi. Yozma bahslar uslubiyoti bunday muloqotlarni o'quv xonasidagi barcha o'quvchilar ishtirokida yozma shaklda o'tkazish imkonini beradi.

«Implus-plakat» metodi. Har bir ishtirokchi uchun vatman varaqlari va markerlar kerak bo'ladi. Stollarning ustiga oxirgacha yetkazilmagan fikrlar yozilgan plakatlar qo'yilgan: «Ushbu mavzuda meni hammasidan ko'proq... qiziqtiradi», «Men shuni aniqlashtirmoqchi edimki,...», «Men orttirgan bilimlarimni ...qo'llayman», «Ushbu mavzuni o'rganish jarayonida men... erishdim», «Men ...to'g'risida ko'proq bilib olmoqchi edim», «Men uchun ... murakkab bo'ldi», «Menga ...yoqdi».

Iloji boricha bu metodni mashq jarayonida xotirjam, past ovozda musiqa yangrab tursin. Ishtirokchilarga barcha plakatlarni aylanib va ko'rib chiqib, boshlab qo'yilgan fikrlar ustida o'ylab ko'rish va shu plakatlarning o'zida davom ettirib oxirgacha yetkazish taklif etiladi. Taxminan 15 daqiqadan so'ng plakatlar ilib qo'yiladi. Fikrlar eshittirib o'qiladi, kerak bo'lsa aniqlashtiruvchi savollar beriladi. Ishtirokchilar o'z fikrlarining ostiga ismlarini yozish yoki anonim bo'lib qolishni o'zlari hal qiladilar.

«Implus-plakat» metodining afzalligi. Anonimlik o'quvchilar boshqa vaziyatda sukut saqlashni Afzal ko'rib aytmagan fikrlarini bayon etishga yordam beradi. Bu mashqda bayon etilgan umidlar va istaklar o'qituvchiga kelgusida mashg'ulotlarni rejalashtirish va o'tkazish vaqtida o'z harakatlarini to'g'irlashga imkon beradi.

#### XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak tarbiya yuksak ma'naviy, jismoniy barkamollik, yaxshining yomondan farqini anglash, yuksak insoniy fazilatlarini shakllantirish qudratiga egadir. Tarbiya kishilik jamiyatining hamma bosqichlarida rivojlanib, o'sib avloddan- avlodga vorislik vazifasini bajaradi. Shu tufayli maktab darsliklari qatoriga «Tarbiya» fanining qo'shilishi bekorga emas. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga «Tarbiya» fanini o'qitishda maqolada keltirilgan: Akvarium metodi, Yozma bahslar metodi, Implus- plakat metodlari orqali ko'plab kutilgan natijalarni olishimiz mumkindir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. [www.lex.uz/](http://www.lex.uz/) O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 6-iyundagi 422-qarori
2. Milinorov, X. X., and D. N. Eshmuratova. "THE ROLE OF UZBEK TRADITIONS, CEREMONIES AND CUSTOMS IN PERSONALITY DEVELOPMENT." *Web of Teachers: Inderscience Research* 2.5 (2024): 205-209.
3. Shavkat, Khaydarov, and Khuzhaniyozov Bakhrom. "ON THE IMPORTANCE OF ETHNOPEDEGOGICAL TRADITIONS IN THE UZBEK PEOPLE." *Web of Teachers: Inderscience Research* 2.5 (2024): 210-214.
4. HUMANIYOZEV, B. "ORGANIZATION OF THE FORMATION OF HISTORICAL THINKING OF SCHOOLCHILDREN IN AN EDUCATIONAL ORGANIZATION." *Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi* 7.4 (2024): 292-295.
5. Xushmatovich, Milinorov Xusniddin. "BOSHLANG 'ICH TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA ILG 'OR TAJRIBALARDAN

- FOYDALANISH." *Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari* 8.1 (2024): 158-162.
6. Sokhibov, Akmal. "Economic and Political Restraints for Reducing the Drug Economy in Afghanistan." *Sicherheit und Frieden (S+ F)/Security and Peace* (2014): 193-200.
  7. Rustamovich, Sohibov Akram. "Using A Modular Approach in the Credit System of Education." *Academicia Globe* 2.6 (2021): 391-394.
  8. Сохибов, Акрам Рустамович. "Формирование организаторских способностей молодёжи Республики Узбекистан." *Журнал научных публикаций аспирантов и докторантов* 9 (2016): 71-73.
  9. Xushmatovich, Milinorov Xusniddin. "TALABALARDA MUAMMOLI TA'LIM JARAYONINI RIVOJLAHTIRISH TEXNOLOGIYASI." *Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari* 8.1 (2024): 163-170.
  10. Xushmatovich, Milinorov Xusniddin. "Pedagogik faoliyat jarayonida bo'lajak pedagoglarni raqamli texnologiyalardan foydalanish samaradorligini oshirish." *Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi* 7.4 (2024): 305-312.
  11. Xusniddin, Milinorov, and Mavlonova Malika. "Bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy-pedagogik tayyorlash jarayonida kommunikativ kompetentsiyalarini rivojlantirish metodikasi." *Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi* 7.4 (2024): 296-304.
  12. Милиноров, Хусниддин Хушматович, and П. М. Жалолова. "ПРОЦЕСС ОРГАНИЗАЦИИ РАЗВИТИЯ КОМПЕТЕНЦИЙ В ВЫСШЕЙ ШКОЛЕ." *Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies*. Vol. 3. No. 5. 2024.
  13. Jalolova, P. M., and Yo D. Odilov. "Methods of atomic physics classes organization based on e-learning technologies." *SCIENCE AND WORLD* (2013): 20.
  14. Jalolova, P. "USE OF ICT TOOLS TO INCREASE THE EFFECTIVENESS OF TEACHING PHYSICS IN GENERAL SECONDARY SCHOOLS." *Science and innovation* 2.B5 (2023): 393-401.
  15. Xushmatovich, Milinorov Xusniddin. "PEDAGOGIKANING INSON VA UNING SHAXSINI SHAKLLANTIRADIGAN ORNI." *Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari* 8.1 (2024): 145-151.
  16. Jalolova, Pokiza. "Theoretical-methodological aspects of quantum physics section in the credit module system." *Solid State Technology* 63.6 (2020): 152-158.
  17. Хайдаров, Шавкат. "Роль этнопедагогике в узбекском народном традиции." *Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi* 7.4 (2024): 286-291.
  18. Khaidarov, Sh. "MOTIVATION OF PEDAGOGICAL BACHELORATE GRADUATES FOR PROFESSIONAL TEACHING ACTIVITIES." *Science and innovation* 2.B12 (2023): 892-895.
  19. Khaydarov Shavkat Khuzhaniyozov Bakhrom. "On The Importance Of Ethnopedagogical Traditions In The Uzbek People" 2. 2024/5:c 210-214
  20. Хайдаров, Шавкат. "Роль этнопедагогике в узбекском народном традиции." *Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi* 7.4 (2024): 286-291.